

O'zbekiston Prezidenti Qirg'izistonga keldi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Bishkek shahriga keldi.

“Manas” xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Qirg'iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi - Prezident Administratsiyasi rahbari Aqilbek Japarov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Bugun Qirg'iziston poytaxtida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi sammiti bo'lib o'tadi. Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi kun tartibidan MDH doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish, jumladan, savdo, investitsiyalar, sanoat kooperatsiyasi, innovatsiyalar, raqamlashtirish, transport, ta'lim, madaniyat va boshqa sohalarda qo'shma dastur va loyihalarni amalga oshirish masalalari o'rin olgan.

Manba